

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TEXNALOGIYA
FANIDAN IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Namangan davlat pedagogika instituti 70110501 - Ta'lim tarbiya nazariya va
metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yonalishi 1- bosqich magistranti*

Xolmirzayeva Zulayxo

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya fanidan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan usullar hamda texnologiya fani darsligidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ijodiy qobiliyat, metod , texnika, fan taraqqiyoti , bozor iqtisodiyoti, 21- asr, integratsiya, industrial , sun'iy intelligent, innovatsiya, O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, industrial-texnologik lokomotivlar eskiz, model, maket, konveyer, modellashtirish, konstruktura, art,*

Bugungi kunda biz atrofimizni zamonaviy qulayliklarga bo'y bo'lgan atmosfera o'rab olgan hayotda yashayapmiz. Bu har bir sohada o'z aksini topgan. 21- asr yuksak texnologiyalar asridir , shunday ekan har yangi yil o'tgan yilga nisbatan yanada zamonaviy va yangiliklarga to'la bo'lmoqda. Insoniyat yanada koinotni zaft etishi tezlashmoqda, olimlar hattoki o'zga sayyoralarda ham odamlar yashay olishini , eski turlardan yangilarni yaratishni o'ylab topmoqdalar. Sun'iy intelligent insoniyat hayotining bir bo'lagi bo'lib , ularsiz hayotning ma'nosi ham yo'q bo'lib kelmoqda.

Bularning barchasi albatta fan texnologiya va innovatsiyaning sharofatidir. Shunday ekan, ta'lim sohasi barcha yo'nalishlarning asosi va poydevoridir. Jumladan, texnologiya fani hamdir. Boshlang'ich texnologiya ta'limi bu boshlang'ich art tushunchasini anglatadi va davlat ta'lim standartini va milliy modulining tarkibiy qismi sanaladi.. Texnologiya ta'limini maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimlari tashkil etadi. Va ularning o'zari integratsiyalashuvidan yaxlit sistema hosil bo'ladi. Bu jarayon bosqichma-bosqich, oddiydan-murakkabga qarab yo'lga qo'yiladi, Buning

natijasida ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish ko'zda tutiladi. Texnologiya ta'limini O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, 2025-yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi, fan taraqqiyoti va texnik-texnologiyalarning rivojlanishi, bozor munosabatlari va inson kapitaliga qo'yilayotgan yangi talablar asosida modernizatsiyalash lozim. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan texnologiya fanining amaldagi holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga sharoit yaratish muhim shartlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish kerakligi haqida so'z yuritgan. Shu o'rinda, Boshlang'ich ta'lim bu maktabgacha ta'lim tizimidan keyingi muhim bosqich hisoblanadi. Chunki, bola boshlang'ich ta'lim jarayonida bog'chadagi davridan ko'ra ko'proq ma'lumot va informatsiyalarni qabul qilishi isbotlangan. Shu asnoda, ayni shu davrda texnologiya haqidagi dastlabki tushunchalarni berib borish lozim. Turli metod va usullardan foydalanish, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi tajribalari asosida soddadan murakkabga qarab texnologik bilimlarni berib borish dastlabki artist va muhandislarni tayyorlashga yordam beradi. Bu jarayon qiziqarli va o'z navbatida murakkabdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya faniga qiziqtirish va ijod qilishlariga sharoit yaratib berish har bir pedagog kadrning burchi va majburiyati sanaladi. Misol uchun yangi taxrirdagi 4- sinf texnologiya darsligini oladigan bo'lsak, "Texnologiya" darsligiga "Texnologiya va texnologik vositalar; texnik konstruksiyalash va modellashtirish; robototexnika asoslari; zamonaviy kasblar; milliy hunarmandchilik kabi bo'limlari yangidan kiritildi. "Texnologiya" darsligi o'quvchini dizayner, fitodizayner, marketolog, interyer dizayner, me'morchilik,

muhandis dasturchi kabi kasblar haqida axborot beradi. Darslik mazmuni o'quvchilarni eskiz, model, maket, konveyer, modellashtirish, konstruktirlash kabi mavzular o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya faniga qiziqtirish bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan boshlanadi. Shu o'rinda ijodiy qobiliyat Ilmiy ta'rifga ko'ra, - bu muayyan shaxsning individual va psixologik xususiyati bo'lib, uning muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi. Muayyan qobiliyatlarning paydo bo'lishi uchun tug'ma shartlar - bu birinchisidan farqli o'laroq, tug'ilishdan boshlab odamda paydo bo'ladigan moyilliklar. Shuni yodda tutish kerakki, qobiliyatlar dinamik tushuncha bo'lib, ularning doimiy shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatning turli sohalarida namoyon bo'lishini anglatadi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq. Rubinshteynning so'zlariga ko'ra, ularning rivojlanishi spiraldan sodir bo'ladi, bu yanada yuqori darajaga o'tish uchun qobiliyatlarning bir darajasi taqdim etadigan imkoniyatlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Metod - yunon tilidan olingan bo'lib, biror bir maqsadga erishishning usullari va yo'llari hisoblanadi. Buni sodda holda tushuntiradigan bo'lsak, o'quvchi har kuni maktabga borishi kerak. Va o'quvchi xohlasa piyoda, xohlasa velosipedda yoki biror bir transport yordamida borishi mumkin. U har uchala usul orqali ham o'zining maktabga borish maqsadini amalga oshiradi. Ushbu misoldan xulasa shunday boladiki, metod bu shunchaki maqsadga erishishning yo'llaridir. Texnologiya fanini o'rganishda ham o'quvchilarning o'ziga xos yashirin qobiliyatlarini topish va rivojlantirish uchun ham turli metod va usullardan foydalanish sezilarli darajada yordam beradi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinmi, texnologiya bugungi kundagi eng muhim va kerakli fandır. Rivojlanib borayotgan bu davrda ayniqsa Art sohasida yangidan yangi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Qo'l mehnatidan tortib robotlashgan sohalarga qadar yangi uslub, yangicga yondashuv, yangicha dizayn paydo bo'lmoqda. Bu esa yanada

texnologiya fanini chuqurroq egallashga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 -yil 6 -apreldagi "Umumiyo'rtava o'rta maxsus, kasb-hunarta'limining davlatta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187 -sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlaritoplami, 2017 -y., 14 -son, 230 -modda.
2. Orziyeva U. Texnologiya fanining ta'lim jarayonidagi ahamiyati. maqola .JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .<http://www.newjournal.org/> Volume-13_Issue-2_September_202
3. "Texnologiya darsligida nimalar o'zgardi"/ Yangi O'zbekiston /<https://yuz.uz>